Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 008

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Nemis xalq e’tiqodlarining o‘rganilish tarixi: ilmiy yondashuvlar va talqinlar

Gayrat Abduhakimovich Khafizov[a,*], G‘ayrat Abduhakimovich Hafizov[b]

[a] *Gyote-instituti O’zbekistondagi filiali*

[b] *Gyote-Institutining O‘zbekistondagi filliali Ta’lim sohasida hamkorlik bo‘limi xodimi*

✉ gayrat.khafizov@goethe.de

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda nemis xalq e’tiqodlari va xurofotlari tarixiy, lingvistik hamda madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda XVIII asrdan XXI asrgacha shakllangan ilmiy yondashuvlar, xususan, J. G. F. Yakobi, A. Vuttke, M. Shpis, V.-E. Poykert, G. Menshing va X. Daxelmüller qarashlari hisobga olinadi. Xurofot xalq tafakkuri, tili va madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, uning lingvokognitiv, pragmatik va madaniy funksiyalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar

xurofot, nemis xalq e’tiqodlari, lingvokulturologiya, etnolingvistika, folklor, kognitiv tahlil, madaniy skript, xalq tafakkuri.

DOI: 10.5281/zenodo.23278506

Xalq e’tiqodlari va xurofotlar insoniyat madaniyatining eng qadimiy qatlamlarini tashkil etadi. Ular milliy tafakkur, til va urf-odatlar tizimi doirasida avloddan avlodga o‘tib, xalqning ma’naviy dunyosini shakllantiradi. Nemis madaniyatida xurofot va urf-odatlar diniy, ijtimoiy hamda psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘p asrlik an’anaga ega. Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ushbu maqolada nemis xalq e’tiqodlarini o’rganishga doir ba’zi bir ilmiy izlanishlar yoritishga harakat qildik.

Nemis tilshunos olimi J.G.F. Jacobi 18 asr oxirida “Das Buch vom Aberglauben, Misbrauche und falschem Wahn” nomli asarini nashr etadi. [6] Ushbu kitob o‘sha davr xalq orasidagi turli xurofot va e’tiqodlarni ma’rifiy-tanqidiy ruhda yoritishga qaratilgan edi. Jacobi turli “noto‘g‘ri va behuda” e’tiqodlarni tizimlashtirib, ularni ratsional nuqtayi nazardan izohlab beradi. Uning maqsadi xurofotni fosh etish va jamiyat diqqatini ushbu masalaga qaratish bo‘lgan. Jacobi ilmiy tasnif yoki nazariy tahlilga chuqur kirmagan – u ko‘proq ma’rifatchilik ruhida har bir xurofotga tanqidiy izoh berishga intilgan. Masalan, u xurofotlarni aql-idrokka zid “xato e’tiqodlar” sifatida ko‘rsatib beradi. Jacobi davrida “xurofot” diniy va ilmiy elita nazarida salbiy tushuncha edi. O‘z asarida olim bu e’tiqodlarni nasroniy ilmiy-ma’rifiy tamoyillar nuqtayi nazaridan qoralaydi. Jacobi til birliklarini tahlil qilmagan, faqat ularni mazmunan sharhlab bergan. Jacobi ishining tarixiy qadriyati – u Aberglaube (xurofot) mavzusini dastlab ilmiy muhokamaga olib chiqqanidir. U bu bilan nemis folklorida xurofotni alohida mavzu sifatida ko‘tarib, keyingi tadqiqotlarga zamin yaratib berdi.

19 asr o‘rtalarida Adolf Wuttke tomonidan yozilgan “Der deutsche Volksaberglaube der Gegenwart” (Zamonaviy nemis xalq xurofoti) nomli kitob nemis xalq e’tiqodlarini birinchi keng qamrovli tizimlashtirishga urinish edi. [10, 268] Masalan, u Germaniyaning turli mintaqalaridan olingan xurofot va irim-sirimlarni jamlaydi va Prussiyadan Bavariyagacha bo’lgan hududlarda odat va e’tiqodlarni e’tiborga oladi. Wuttke xurofotlarni mavzularga ko‘ra tasnifladi va ularning kelib chiqishini tabiiy-mifologik maktab doirasida sharhlaydi. U Jakob Grimm maktabi ta’sirida, xalq e’tiqodlarini qadimgi german butparastligi qoldig‘i, tabiat-kultga oid mi-

flar aks-sadosi sifatida talqin qilgan. Wuttke o‘z asarida, mifologik tus berib, german xudolari va afsonalari zamonaviy xurofotga qanday “singib ketgani”ni muhokama qiladi.[10, 86] Unga ko‘ra, masalan, uy eshigiga ot taqasini ilib qo‘yish urfi qadimiy hosildorlik sehridan qolgan an’ana sifatida baholanadi. Wuttke tarixiy-mifologik kontekstga e’tibor qaratgan, lekin ijtimoiy kontekstni kam yoritgan – masalan, 19 asr jamiyatida bu e’tiqodlarning vazifasi nimada ekanligini tahlil qilmagan. Wuttke ayrim joylarda dialektal atamalarni keltiradi, masalan, “Freitag der 13.” (13-juma) ni xurofot deb ta’riflab, bu kun nomiga xalqning mistik munosabati borligini aytadi. Umuman olganda, u frazeologizm yoki maqollarning lingvistik tahliliga to‘xtalmaydi. Kitob matni asosan mazmuniy ro‘yxat va sharhlardan iboratdir. Wuttke asari o‘z vaqtida ilk ilmiy katalog sifatida juda foydali bo‘lgan – *HdA* (Handwörterbuch des deutschen Aberglaubens) lug‘ati tashabbuschilari ham uni asos qilib olganliklarini kuzatish mumkin. Unda keltirilgan o‘nlab xurofotga oid bayonlar va urflar hozirgi tadqiqotchilar uchun manba sifatida qimmatlidir. Biroq, Wuttke yondashuvi bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan eskirgan deb hisoblanadi. Uning tabiat-mifologik talqini hozirgi folklorshunoslikda qabul qilinmaydi, chunki har bir xurofotni faqat butparastlik mifidan kelib chiqqan deyish soddalashtirilgan yondashuvdir. [3, 112-122] Shuningdek, u xurofotning ijtimoiy yoki ruhiy funksiyalarini tahlil qilmagan, nazariy modeli esa bir yoqlama bo‘lgan.

19 asr o‘rtalarida ayrim tadqiqotchilar aniq bir mintaqaga oid xalq e’tiqodlarini to‘plashga kirishadilar. Dr. Moritz Spieß “Aberglauben, Sitten und Gebräuche des sächsischen Obererzgebirges” (Saks Obererzgebirge hududining xurofot, urf-odat va an’analari) nomli asari aniq bir hudud – Saksoniyaning tog‘li Obererzgebirge mintaqasidagi xalq orasidan to‘plangan empirik materialga tayanganligini tadqiqotimiz davomida kuzatdik. Unda o‘sha yerlik qishloq aholisi orasida uchrovchi turli irimlar, marosimlar, odatlar bayon qilingan. Spieß mahalliy aholi so‘zlaridan foydalanib, real voqea va e’tiqodlarni qayd etgan. Muallif asarida mantiqan tasniflashga harakat qilgan. Jumladan, yil fasllari va kalendar kunlari bo‘yicha odatlar, hayot tarzi bosqichlari (tug‘ilish, to‘y, o‘lim) bilan bog‘liq irimlar va turmush-ta’limot buyumlari (masalan, uy-ro‘zg‘or, chorvachilikka oid e’tiqodlar)ga ajratib bergan. [9] Bu amaliy tasnif o‘sha zamon maktab darsliklari talabida bo‘lgani bois oddiy va tushunarli tuzilgan. Spieß hududiy etnograf sifatida mahalliy an’analarning ahamiyatini ta’kidlagan va ularni “xalq hayotining ajralmas qismi” deb ko‘rsatgan. U ayrim e’tiqodlarning kelib chiqishini ham izohlaydi – masalan, Obererzgebirgedagi “Koleda kechasi derazada sham yoqish” odati haqidagi afsonalarni keltiradi va ularni qadimiy butparast marosimlardan qolgan bo‘lishi mumkin, deb taxmin qiladi. Spieß asarida mahalliy odatlarga ko‘plab so‘z va iboralar uchraydi. U “Glück auf!” kabi mahalliy iboralarga izoh berib, baxt tilash bilan bog‘liq urf sifatida ta’riflagan, yoki “Hollunder” (behi daraxti) atrofidagi e’tiqodlarni bayon qilgan. Spieß to‘plami bugungi kunda ham qimmatli mintaqaviy folklor manbasidir. Uning 80 sahifalik ishida o‘sha hududning “tirik” an’analari qayd etilgan bo‘lib, *HdA* lug‘ati tuzuvchilari ham keyinchalik bu manbaga tez-tez murojaat qilishgan.

Christoph Daxelmüller fikriga ko‘ra, *HdA*-dan bugungi kunda faqat uning yaratilgan davri ilmiy konteksini chuqur bilgan holdagina foydalanish mumkin. *HdA* loyihasi nemis xalq e’tiqodlarini tadqiq etishda ulkan empirik poydevor yaratdi. Bu bugungi tadqiqotlar uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy lingvistik va etnologik yondashuvlar uchun *HdA* ma’lumotlarini qayta talqin etish zarurdir. Xususan, biz *HdA*ga lingvokognitiv va pragmatik nigoh bilan qarab, ulardagi til birligi, kontekst va funktsiyani izohlashimiz kerak. Folklorshunos olim Dieter Harmening zamonaviy Aberglaube sohasidagi tadqiqot vazifasini shunday belgilaydi: “Faqat tarixiy superstitsiya tadqiqi orqaligina universal kategoriya sifatida ishlatilgan “xurofot” tushunchasini inkor etish va har bir e’tiqod amaliyotining qayerda, kim tomonidan, qanday shakl va ma’noda qo‘llanishini aniqlash mumkin”. [2]

HdA nashr etilgan davrda va undan so‘ng Germaniyada xalq e’tiqodlarini o‘rganish bir qator yangi yo‘nalishlarda davom etdi. Xususan, folklor tadqiqotchisi Will-Erich Peuckert va uning zamondoshlari xalq e’tiqodlarini urf-odatlar, marosimlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga e’tibor qaratdilar. Bu davr olimlari *HdA* jamlagan materiallar yangi tadqiqotlari uchun asos bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Urusholdi va urushdan keyingi davrda (1930-50 yy.) Germaniyaning turli hududlarida etnografik kuzatishlar davom etdi. Arxivlarda to‘plangan xalq saytlari (masalan, ro‘za hayiti, Rojdestvo, hosil bayrami kabi) marosim yozuvlari qayta ko‘rib chiqiladi. Peuckert va boshqalar xurofotni kompleks madaniy hodisa sifatida ko‘rib, uni xalqning urf-odatlari,

an’analari kontekstida tushuntirishga intildilar. Masalan, Peuckert 1950-yillarda Germaniya folklori bo‘yicha manba asosida sharhlar yozib, “1930 yildan keyingi folklor tadqiqotlar manbalari va izlanishlari” (Otto Lauffer bilan hammualliflikda) kitobini nashr qiladi. [5] Unda xurofotlar xalq marosimlari (masalan, Allerzielen – O‘liklar kuni, Advent – Kirish bayrami) bilan qanday bog‘liqligi tahlil qilinadi. Peuckertning o‘zi ham Schlesische Volkskunde va Deutscher Volksglaube des Spätmittelalters kabi ishlarida tarixiy hujjatlar va xalq og‘zaki an’analarini qiyoslab, e’tiqodlarning transformatsiyasini yoritgan. [8]

Shu davrda *HdA*ning ayrim jihatlari ham tanqid qilinadi, jumladan, Will-Erich Peuckert *HdA* uchun yozgan maqolalaridan biri orqali natsistlar targ‘ib qilgan yahudiylarga qarshi “jinoyat” xurofotini rad etgani ma’lum, buning uchun 1935-yilda u universitetdan chetlatilgan ham edi. Bu holat folklor tadqiqotiga ham mafkura aralashganini ko‘rsatsa-da, ilmiy doirada baribir xurofotni xalq turmush tarzi tarkibiy qismi sifatida neytralroq o‘rganish tendensiyasi shakllanayotgan edi. Bu davrda bevosita lingvistik tahlil yetarli bo‘lmasa-da, ba’zi izlanishlar xurofotli iboralarning tuzilishiga e’tibor qarata boshladi. Masalan, Grigoriy Permyakov kabi xorijiy (Sovet) tadqiqotchilar xalq ishonchlarini “shaklan maqollarga yaqin folklor janri” sifatida ko‘rib, ularni tuzilishi va mantiqiy tipi bo‘yicha tasnif etdilar. [1, 315-327] Permyakov 1980-yillarda xalq belgilari (primetalar) ni klassifikatsiya qilishga doir ishlar yozadi. G‘arbda ham Alan Dundes (AQSh folklorshunosi) 1960-yillarda xurofotlarni “belgi superstitiyalar” (biror hodisani bo‘lajak voqea belgisi deb qabul qilish, masalan: “agar chumoli uyga kirsa – mehmon keladi”), “maqsadli superstitiyalar” (ma’lum bir harakat qilib natijaga erishish: “tish qayrab oy ko‘rgan – boylik keltiradi” singari) kabi turlarga ajratib o‘rgandi.[1, 315-327] Bu ishlar tilshunoslik va folklorshunoslik kesishmasida edi, chunki xurofot matnlari (ko‘pincha “agar…, agar bo‘lmasa …” shaklidagi shartli gaplar) alohida janr sifatida qaraldi.

1930-50 yillar folklorik izlanishlari o‘z davri uchun progressiv bo‘lib, xurofotni “sof marosimga oid hodisa” sifatida o‘rganishdan “madaniy kompleks” sifatida o‘rganishga o‘tish ko‘zga tashlanadi. Bu esa hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan tizimli yondashuvlarning debochasi edi. Shunga qaramasdan, bu davr izlanishlari ham hali zamonaviy lingvistik metodlarga tayanmagan edi. Ular ko‘proq tarixiy-ta’rifiy yondashuvda qoldi – xurofot mazmunan va funksional jihatdan tasvirlangan bo‘lsa-da, kognitiv mexanizmlar (masalan, nimaga odamlar bunday ishonchni ongida shakllantiradi) ochib berilmadi. *HdA*dan keyingi folklorshunoslik xurofotga kengroq rakursdan qarashni boshladi – uni diniy, ijtimoiy va rasm-rusumiy fonda tushuntirishga intildi. Bu yondashuvning afzalligi shuki, xalq e’tiqodlari real hayotiy vazifaga ega fenomen sifatida ko‘rildi (masalan, ogohlantiruvchi belgilar, marosimlarning ajralmas qismi va hokazo). Muammoli tomoni – hali ham til va tafakkur birligi darajasida chuqur tahlil yo‘qligi edi. Xurofotlarni faqat sanab o‘tish emas, balki ularni kontekst va vazifasida ko‘rish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, ularning tilda nomoyon bo‘lishini ham alohida inobatga olmasdan bo‘lmaydi – chunki aynan til orqali bu e’tiqodlar avloddan-avlodga o‘tadi.

Xalq e’tiqodlarini o‘rganishda dinshunoslik va falsafiy yondashuv ham muhim rol o‘ynagan. Germaniyalik dinshunos Gustav Mensching o‘zining “Das Wunder im Glauben und Aberglauben der Völker” (Xalqlarning e’tiqodi va xurofotida mo‘jiza) asarida din va xurofotning nisbiy chegaralarini tahlil qiladi. [7, 45-56] Mensching mo‘jiza (dinda qabul qilingan mo‘jizaviy hodisa) bilan xurofot (dindan tashqaridagi mo‘jizaviy ishonch) orasidagi farq mutlaq emasligini ta’kidladi. Unga ko‘ra, dindor kishi mo‘jizaga ishonar ekan, bunday e’tiqod boshqa birov nazarida xurofot bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Masalan, u katolik mo‘jizalarini hurmat qilish bilan oddiy xalqning muqaddas buyum – “talisman”ga ishonchi o‘rtasida psixologik jihatdan umumiylik borligini yozadi. Menschingning yondashuvi sinxretik bo‘lib, u din va xurofotni qarama-qarshi qo‘yish o‘rniga, ularning o‘zaro bog‘liqligini, chegaralarning nisbiyligini ko‘rsatadi. Mensching asosan din tarixi, mifologiya va etnografik misollarga tayandi. Uning asari kitob bo‘lib, muqobil ravishda qisqa (125 bet) bo‘lsa-da, unda turli xalqlardan misollar keltiriladi. Masalan, Afrikadagi shamonlik amallari, Osiyodagi buddist mo‘jizalar haqidagi rivoyatlar, Yevropadagi xalq talqinlari. U taqqoslovchi dinshunoslik metodidan foydalangan – turli dinlar va madaniyatlardagi “mo‘jiza” va “xurofot” tushunchalarini qiyoslab, ularning umumiy va farqli jihatlarini ajratgan. Mensching diniy e’tiqod va xurofotni falsafiy-diniy kontekstda muhokama qiladi. U masalaga ilohiyot nuqtayi nazaridan yondashib, xurofotning zararli tomoni ya’ni, haq e’tiqoddan og‘ish masalasini ham ko‘taradi. Mensching ishida til yoki folklor matnlar tahlili deyarli yo‘q bo‘lib, u kognitiv-diniy konsepsiya bilan cheklangan. Masalan, u injil mo‘jizalarini yoki xalq orasidagi afsonalarni muhokama qilar ekan, ularning

lingvistik ifodasiga emas, balki mazmun va aqidaviy jihatiga e’tibor beradi. Mensching asari garchi yillar o‘tib ancha unutilgan bo‘lsa-da, uning kontinuum g‘oyasi zamonaviy tushunchaga muhim hissa qo‘shgan. Bugungi antropologlar ham diniy marosimlar bilan sehrli xurofot bir tizimning elementlari ekanini ta’kidlaydilar. Mensching yondashuvi juda umumiy va nazariy bo‘lib, empirik til va folklor materialidan uzoqlashganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, u xurofotni baribir salbiy ohangda tilga oladi va “ilmiy va haq din”dan past turuvchi hodisa deb biladi, bu esa bugungi neytral ilmiy qarashlarga to‘g‘ri kelmaydi.

20 asr ikkinchi yarmi – 21 asr boshlarida xurofotga nisbatan yondashuv yanada madaniy-tarixiy yo‘nalishga o‘tadi. Germaniyalik madaniyat tarixchilari xurofotning madaniy evolyutsiyasini va uning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarini tadqiq qildilar. Bu olimlar asosan tarixiy hujjatlar (masalan, qadimda sud hujjatlarida xurofotga qarshi choralar, cherkov manbalarida xurofotni qoralash), folklor materiallari va zamonaviy kuzatishlarga tayanadilar. Masalan, Christoph Daxelmüller 16–17 asrlarda sehr-jodu va e’tiqodlar haqida manbalar tahlilini amalga oshirgan, shuningdek 1990-yillarda “Aberglaube, Hexenzauber, Höllenängste – Eine Geschichte der Magie” (Xurofot, jodular, do‘zax qo‘rquvlari: Sehr tarixidan) kitobini chop etadi. Zamonaviy madaniyatshunoslar xurofotni tarixiy diskurs sifatida o‘rganadilar – ya’ni qachon, kim tomonidan va qanday maqsadda “xurofot” deb atalgan, bu tushuncha atrofida qanday ijtimoiy bahs bo‘lgani tadqiqotlar olib boradilar. Shu bilan birga, ular xurofot amaliyotlarining jamiyatdagi yashash shakllarini ham tahlil qiladilar. Masalan, Christoph Daxelmüller 21 asrda ham xurofotning sekulyar jamiyatdagi ko‘rinishlarini – masalan, shaharlardagi ofis xodimlarining “omad uchun” qiladiğan kichik udumlarini yoki internet orqali tarqaladigan yangi irimlarni tadqiq qilish zarurligini qayd etgan. Bu yondashuv xurofot fenomenini keng madaniy kontekstga qo‘yadi. Masalan, Christoph Daxelmüller Germaniyada ma’rifatparvarlik davrida cherkov va davlat qanday qilib xurofotga qarshi kurashganini (masalan, maxsus qonunlar chiqqani, ruhoniylar o‘ va’zlarida tanqid qilgani) tahlil qiladi. 20 asrda ilm-fan taraqqiyoti fonida xurofot qanday “yashirincha” davom etgani (ayrim urf-odatlarga singib ketgani, masalan, “Polterabend” – to‘y oldi kechada idish-tovoq sindirish odati) kabi misollarni keltiradi. Yoki bugungi kunda reklama va media ba’zan xurofot motivlaridan foydalanishini (masalan, 13-raqamli mahsulotdan qochish yoki bankingda Friday the 13th kuni savdo sustligi) ko‘rsatadi. Bu bilan, madaniyatshunoslik xurofotni din va fan o‘rtasidagi doimiy tortishuv obyekti va shu bilan birga oddiy odamlar turmushining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi.[4, 234] Madaniy tarixiy yondashuv tilga bevosita murojaat qilmasa-da, u matnlar diskursi tahlilini qo‘llaydi. Ammo lingvistik chuqur tahlil bu yo‘nalishda hali cheklangan bo‘lib, u til vositasidan ko‘ra ijtimoiy mazmunga urg‘u beradi. Endi xurofotni nafaqat “nimaga ishonishadi” degan darajada, balki “jamiyat nima uchun bu ishonchni saqlab qolgan, u qanday moslashgan” degan savollar bilan ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, nemis xalq e’tiqodlari tarixiy jarayonda o‘zgarib borgani, ularga turli davrlarda turlicha yondashilgani va hatto bugungi internet davrida ham yangi shakllar paydo bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Biroq, madaniy-tarixiy yondashuv mikro darajadagi til va tafakkur tahlilini e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. U ko‘proq tarixiy jarayonlarga e’tibor qaratib, xurofotning individual kognitiv mexanizmlarini yoki til birliklaridagi ma’no o‘zgarishlarini har doim batafsil ochavermaydi. Biz har bir e’tiqodni uning davri, ijtimoiy muhiti, hatto mafkurasi doirasida tushunishimiz lozim. Shu bilan birga, biz bu hodisaning til vositasida qanday saqlanib kelganini ham unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Baran A. Weather paremias – a special case of proverbiality // Conference: 9’ Coloquio Interdisciplinar sobre Proverbios. ICP15. 9th Interdisciplinary Colloquium on Proverbs. – Tavira 01-08 Nov.2015 Portugal.

[2] Dieter Harmening: Wörterbuch des Aberglaubens. 2., durchgesehene und erweiterte Auflage. – Stuttgart: Reclam,0 2009. ISBN 978-3-15-018620-6.

[3] Fenske M. Kulturwissenschaftliches Wissen Goes Public. Einblicke in den Aktionsraum von Wissenschaft und Öffentlichkeit am Beispiel volkskundlicher Enzyklopädien. In: Historische Anthropologie. 19. Jahrgang, Heft 1, 2011.

[4] Flurschütz da Cruz, Andreas. Hexenverfolgung. – Beitrag im Historischen Lexikon Bayerns, veröffentlicht am 20. Januar 2022. (abgerufen am 02. September 2025); Bachter S. Anleitung zum Aberglauben Zauberbücher und die Verbreitung magischen „Wis-

sens” seit dem 18. Jahrhundert: Dissertation zur Erlangung der Würde des Doktors der Philosophie der Universität Hamburg aus Dillingen a.d. Donau. – Hamburg, 2005.

[5] https://de.wikipedia.org/wiki/Will-Erich_Peuckert#:~:text=,Kohlhammer%2C%20Stuttgart%201960

[6] Jacobi J.G.F. Das Buch vom Aberglauben, Missbrauch, und falschen Wahn.https://www.projekt-gutenberg.org/jacobijg/aberglau/chap001.html

[7] Remus H.E. Sociology of knowledge and the study of early Christianity // Studies in Religion/Sciences Religieuses, 11(1). https://doi.org/10.1177/000842988201100107

[8] Spemann W. Deutscher Volksglaube des Spätmittelalters. (Sammlung Völkerglaube) – Olms, Hildesheim / New York 1978. ISBN 3-487-06638-6

[9] Spiess M. Aberglauben, Sitten und Gebräuche des sächsischen Obererzgebirges. – Dresden: Königl. Hofbuchhandlung von Hermann Burdach. https://www.gutenberg.org/files/67261/67261-h/67261-h.htm#:~:text=D%20ie%20Kenntnis%20von%20dem,der%20Fall

[10] Wuttke A. Der deutsche Volksaberglaube der Gegenwart. – München: Agentur des Rauhen Hauses, 1860.